



Arab tilining kelib chiqishi va rivojlanishi

Ismoilov Abdulaziz

Toshkent Islom Instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilining kelib chiqishi, rivojlanishi hamda hozirgi holati haqida malumot berilgan

Kalit so'zlar: Qahton, Adnon, fleksiya, lahjalar

Eng eng qadimgi arablarning izlari eramizdan oldingi birinchi mingyillikning boshlariga taqaladi. Arablar o'zlarini qadimgi Qaxton (janubiy arablar) va Adnon (shimoliy arablar) urug'idan tarqalganmiz deyishadi.

Arab tili somiy tillar guruhining janubiy shoxobchasiga taalluqlidir. Arab tili taraqqiyoti uch bosqichga bo'linib o'rganiladi: qadimgi, klassik va hozirgi zamon arab tili.

Qadimgi til bizgacha ba'zi yodgorliklarda yetib kelgan, Tadqiqotchilar shu yodgorliklardagi yozuvlar asosida uning grammatik qurilishini va qisman so'z boyligini aniqlashga muvaffaq bo'lishdi.

Klassik arab tilining namunalari esa bizgacha juda ko'p misqdorda yetib kelgan. Biz ularda mukammal grammatik qurilishga ega bo'lgan, keng leksik tarkibli, johiliy davri nazmi va ta'sirdor qabilalar lahjalari nodir xususiyatlarini o'zida umumlashtira olgan boy tilni ko'ramiz. Qur'oni karim nozil bo'lishi bilan arab tilining badiiyligi yanada go'zallashti va grammatik tuzilishi mukammallashti. Klassik arab tili takomilida muhim ro'l o'ynagan qabila lahjalari orasida eng e'tiborlisi quraysh lahjasidir. Qurayshlar yashaydigan joy -



Makka va uning atrofi savdo markazi sifatida qadimgi arablar hayotida katta ahamiyatga ega edi. Makkaga har yili turli qabilalarning minglab vakillari kelib-ketar, ular gurungida quraysh lahjasi qabilalararo til vazifasini o'tardi. Uning eng nafis iboralari boshqa qabilalar lahjasiga ko'char va shuningdek, boshqa qabilalar vakillaridan e'tiborga molik lug'aviy birliklarni qabul qilar edi ham.¹

Klassik arab tili islom bayrog'i ostida Yaqin va O'rta Sharqda, Markaziy Osiyo va Afrikaing ko'p qismiga tarqaldi. O'rta Osiyoda u uzoq vaqtlargacha xalqaro va bilim tili bo'lib keldi. O'zlarining chuqur ilmiy mulohazalari bilan dunyo fanining ravnaqiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan fan daholari, buyuk vatandoshlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Muhammad Xorazmiy va Mahmud Zamaxshariylar shu tilda samarali ijod qilishgan. Klassik til hozirgi zamon arab tilining shakllanishi uchun zamin bo'ldi.

Hozirgi zamon adabiy arab tili Arabiston yarim oroli va undan shimolroqdagi hamda Shimoliy va Sharqiy Afrikadagi yigirmadan ortiq davlatning rasmiy tili sifatida o'tgan asr oxirlarida shakllandi.

Barcha arab davlatlari uchun umumiy bo'lgan adabiy arab tilidan tashqari, bizning ona tilimizda har bir viloyatda bo'lgani kabi har bir alohida arab davlatlarida ham mahalliy lahjalar mavjud.

Arab tilining so'z tarkibi arablar tarixiy taraqqiyotini o'zida jamlaydi. Qadimgi arab tilida so'zlashuvchi qabilalar tili har jihatdan qabila a'zolari ehtiyoji uchungina zarur bo'lgan so'z boyligi bilan chegaralanardi. Keyinroq Adnon va Qahton guruhlarjning aralashib ketishi natijasida til boyidi, mukammallashti. Istilolar paytida arab tilining

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Arab_tili



mahalliy xalqlar tillari bilan to'qnashuvi unga juda ko'p yangi unsurlar olib kirdi. Hozirgi zamon adabiy arab tili ham leksik nuqtai nazardan ancha jiddiy o'zgarishlarga uchradi.²

Olimlarning fikrlariga ko'ra, arab tili qadimgi somiylik xususiyatlarini boshqa qardrosh tillardan ko'ra ko'proq saqlab qolgan. Arab tilida fleksiya (ishtiyoq) vositasida so'z yasash usuli keng qo'llaniladi. O'zbek tili ham flektiv tillar sirasiga kiradi. arabiy ismlarda ro'y beradigan fleksiyalar ko'pincha so'z tarkibi ichida "sinish" orqali ro'y beradi. Fe'llar zamon, shaxs, son, jinslarga muvofiq fleksiyalar oladi.

Arab tilidagi so'z turkumlari, bizning tillarni o'rganishda odat bo'lganidek, o'n yoki shunga yaqin adadga ega deb tushunilmaydi. Ular uchta: fe'l, ism va harflar. Arab morfologiyasidagi so'z turkumlari, aslida, turkum guruhlaridir.

Arab tili o'ziga xos va mukammal yozuv sistemasiga ega bo'lib, unda undosh va cho'ziq unlilargina o'z ifodasini topgan. harflar o'ngdan chapga yoziladi. Tildagi mavjud qisqa unlilar yozilmaydi, Arab tilining yozuv sistemi tildagi barcha xususitlarni to'liq aks ettira Oladi.

Arab alifbosi arab tili uchun juda mos bo'lishiga qaramay, arab yozuvi bilan tilining fonetik sistemi o'rtasida kattagina farq mavjud. Ana shu qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida mutaxassislar tilning barcha xususiyatlarini to'la tavsiflashda juda qo'l keluvchi transkripsiyalash usulidan foydalanishadi.

Hozirgi zamon arab tilida talaffuzning asosan to'rt uslubi mavjud:

1. Klassik uslubdagi talaffuz. Bunda har bir gapdagi so'z o'zining barcha morfalogik qo'shimchalari bilan to'la talaffuz qilinadi. Qur'on Karim tilovatidagi talaffuz normasi (tajvid), hadislarining o'qilishi bunga misol bo'la oladi.

² F.Muhammad . Davrul lug'otul arabiyya.- Misr.: Darul lulua, 2023



2. Adabiy tilga to'la mos bo'gan orfoepik uslub. Bu uslubda so'z oxiridagi grammatik qo'shimchalar, xususan, nutq birligi oxiridagi qisqa unlilar tushurib qoldiriladi. Radio-telvidinadagi nutq, jome' masjidlarda olib boriladigan ma'ruzalar, ko'pchilik oldida o'qiladigan dokladlar va shunga o'xshashlar shu uslubda talaffuz qilinadi.
3. Adabiy tilga to'la mos bo'lmagan norasmiy muloqotlardagi talaffuz uslubi.bunga arablarning umumiy muomaladagi talaffuzi kiradi.
4. Oddiy so'zlashuv uslubi. Adabiy tildan ko'ra ko'proq u yoki bu mahalliy sheva asosiga qurilgan bo'ladi. Arablarning oddiy muomaladagi so'zlashuvi shu uslubni tashkil etadi.³

Foydalanilgan manbaalar:

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. F.Muhammad. Davrul lug'otul arobiyya - Misr.: Darul lulua, 2023

³ F.Muhammad . Davrul lug'otul arobiyya.- Misr.: Darul lulua, 2023